



**№ 278**  
**2024 yil «28» «dekabr»**

**“O’zsanoatqurilishbank” ATB “Odob-ahloq” komissiyasining  
yig’ilish bayoni**

<b>Komissiya raisi:</b>	Boshqaruv Raisi <b>A.Akbarjonov</b>
<b>Komissiya raisi o‘rinbosari:</b>	Risk Bosh direktori <b>S.Ismagilov</b>
<b>Komissiya a’zolari:</b>	Ichki xavfsizlik departamenti direktori <b>S.Sergiyenko</b>
	Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti direktori <b>A.Orifjonov</b>
	Yuridik departamenti direktori v.v.b. <b>U.Aminova</b>
	Risk menejment departamenti direktori <b>D.Xujayev</b>
	Komplayens-nazorat departamenti direktori <b>A.Yoqubjonov</b>
<b>Komissiya kotibi:</b>	Komplaens-nazorat departamenti xodimi <b>K.Yuldashev</b>

**KUN TARTIBI:**

**“O’zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining o’zaro manfaatlar to’qnashuvini  
o’rganish yuzasidan o’tkazilgan tahlil natijalari yuzasidan**

Komissiya Raisi A.Akbarjonov tomonidan yig’ilish ochiq deb e’lon qilindi hamda kun tartibidagi masala bo'yicha axborot berish uchun so'z Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti xodimi Sh.Navruzovga berildi.

Sh.Navruzov komissiya a'zolariga:

- Bank boshqaruvining 2022-yil 10-maydagi 56/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O’zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlар to’qnashuvini boshqarish to’g’risidagi Nizom” talablariga asosan 2024-yil uchun **3710 nafar** bank xodimlari tomonidan deklaratsiyalar taqdim etilganligini;

- manfaatlар to’qnashuvi to’g’risidagi deklaratsiyalar bank tizimida mehnat faoliyatini yuritayotgan ayrim xodimlar tomonidan taqdim etilmaganligini, bu holat esa qonunchilik hujjatlari va bankning ichki me’yoriy hujjatlari talablari buzilishiga olib kelayotganligini;

- xodimlar tomonidan taqdim etilgan “Manfaatlар to’qnashuvi holatlari to’g’risida”gi deklaratsiyalarning tahlili natijalariga ko’ra tizimda **6 ta real** (*biri ikkinchisiga to’g’ridan-to’g’ri bo’ysinuv yoki nazorat ostida bo’lishi*) va **159 ta potensial** (*biri ikkinchisiga to’g’ridan-to’g’ri bo’ysinuv ostida bo’lmagan, biroq kelgusida bank manfaatlari qarama-qarshi bo’lishi yoki xodimlar tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan ehtimoliy vaziyat*) manfaatlар to’qnashuvi holatlari mavjudligi aniqlanganligini ma’lum qildi.

Shuningdek, Sh.Navruzov bank tizimida **real** manfaatlар to’qnashuvi holatlari:

Bosh bankda - **2 ta holatda**:

Hududiy tarkibiy bo’linmalarda – **4 ta holatda** aniqlanganligini, Bosh bank va hududlarda aniqlangan real manfaatlар to’qnashuv holatidagi xodimlarining **2 nafari** bola parvarishlash ta’tilda ekanligitish hamda ular hozirgi kunda bevosita bank amaliyotlarini bajarmayotganligi va mehnat qonunchiligi bilan kafolatlangan ta’tilda ekanligini;

**Potensial** manfaatlар to’qnashuvi Bosh bankda - **61 ta holatda**;

Hududiy tarkibiy bo’linmalarda – **98 ta holatda** aniqlanganligini, kelgusida bank manfaatlaringinuz buzilishini oldini olish maqsadida real manfaatlар to’qnashuvi holatlarini hal qilish choralarini ko’rish, potensial manfaatlар to’qnashuvi holatlari bo’yicha profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligini ma’lum qildi.

Komissiya a’zolari taqdim etilgan hujjatlari hamda bildirilgan takliflami muhokama qilib,

### **QAROR QILDI:**

**1.** Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti (A.Orifjonov) va Yuridik departamenti (U.Aminova) zimmasiga real manfaatlар to’qnashuvi deb baholangan holatlarni ko’rib chiqish va o’z takliflarini **2025-yil 6-yanvar kuniga qadar** Komissiya muhokamasiga takroran kiritish;

**2.** Holatlар ko’rib chiqilgandan so’ng Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti (A.Orifjonov) zimmasiga:

- Bank tizimida aniqlangan **real** manfaatlар to’qnashunuvi holatlari bo’yicha xodimlarga bola parvarishlash ta’tilidan chiqqandan so’ng мазкур холатларни O’zbekiston

Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga asosan bartaraf etish choralarini ko‘rish;


- **5 ish kunlik muddat** ichida Bosh bank va hududiy tarkibiy bo’linmalardagi real manfaatlar to‘qnashunuvi holatlarini bartaraf etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga asosan tegishli choralar amalga oshirish;

**3.** Bank tizimida aniqlangan **potensial** manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelgusida real manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishini oldini olish maqsadida, potensial manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlangan xodimlar bilan **2025-yil 10-yanvar kuniga qadar** profilaktik suhbatlar va tegishli choralar ko‘rish;

- manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklarasiyalarni ayrim sabablarga ko‘ra taqdim etmagan (eta olmagan) xodimlardan **2025-yil 6-yanvar** kuniga qadar yig‘ib olish, bunda xodimlarga O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni talablari, xodimlarning huquq va majburiyatlarini to‘liq tushuntirish, va ularning tahlilini amalga oshirish;

- Komissiya qarori ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **2025-yil 16-yanvar kuniga qadar** Komissiyaga ma’lumot taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

**Boshqaruv Raisi :**



**A.Akbarjonov**

kelishuvchilar: A.Orifjonov, S.Sergiyenko, A.Yoqubjonov, S.Ismagilov, D.Xujayev, U.Aminova

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=u046hW44&id=63fb26fe-a5e3-46e7-b6c4-5a023eddc64f>